

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожақеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамова Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

1. Валишер Элмуродович Абиров ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ: ИЛМЙИ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА МУНОЗАРА.....	5
2. Жалолиддин Тухташевич Аннаев ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРМИТА-ТЕРМИЗДА БУДДАВИЙЛИК.....	13
3. Феруза Парходовна Атамуратова ҚАДИМГИ ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИДА ТАРМИТА-ТЕРМИЗ.....	21
4. Мунаввар Абдурашид қизи Атамирзаева МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ.....	28
5. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ЎЗБЕКИСТОН ШИФОБАХШ ЖОЙЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ИЛМЙИ ЭКСПЕДИЦИЯЛАР ВА ИЛМЙИ-ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ....	35
6. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ТУРКИСТОН ТАБИЙИЙ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМЙИ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ.....	40
7. Дилафруз Аҳмедова Хусан қизи МАКТУБЛАР МАНБА СИФАТИДА.....	46
8. Oхunjon Axmat o'g'li Boboqulov MUSTAQIL KONGO DAVLATINING SSSR BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI (davriy matbuot gazetalari tahlili asosida).....	53
9. Феруза Хаятовна Бобожонова БУХОРОДА МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ (XIX АСР ОХИРИ-XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИ).....	58
10. Omon Olimjonovich Gadayev MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK TARIXI.....	65
11. Дилорам Зияева МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЎРТА АСРЛАРДА ЮЗ БЕРГАН УЙҒОНИШ. ВАТАНДОШЛАРИМИЗНИНГ ЖАҲОН ТАМАДДУНИГА ҚЎШГАН ҚИССАСИ.....	71
12. Farxod Sobirovich Ziyayev TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAКAT.....	77
13. Ubaydulla Mamat o'g'li Ismoilov SUYURLITEPA YODGORLIGI O'RNIDAGI SHAHARNING TARIXIY NOMI XUSUSIDA MULOHAZALAR.....	84

14. Baxtiyor Safarovich Nazirov JADID VAKILLARINING AHOLINI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDAGI QARASHLARI.....	109
15. Рустам Абдуваид ўгли Неъматов ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ХОРАЗМ ВОҲАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	114
16. Дилорам Сангирова ЎРТА АСР ДАВЛАТЧИЛИК РАМЗЛАРИ СЎЗ ВА ТАСВИРДА.....	120
17. Lyudmila Mixaylovna Sokolova ANDIJON, NAMANGAN, FARG‘ONA VILOYATLARIDAGI HUNARMANDLAR USTOZIGA BAG‘ISHLANISH MAROSIMINING IBTIDOSI HAQIDA.....	130
18. Фазилат Нормуродовна Тургунова СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРИ ФАОЛИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	142
19. Баходир Босимович Тўйчибоев ҚОЯТОШ ЁДГОРЛИКЛАРНИ САҚЛАШ ВА ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА.....	147
20. Раъно Нортўхтаевна Тўхтаева ЎЗБЕКИСТОНДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН Кейинги ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТ...154	154
21. Dilshod Inomjon o‘g‘li To‘xtasinov NORIN VA QORADARYO ORALIG‘I HUDUDLARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI VA UCHTERA-2 YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI.....	159
22. Mansur Xayrullayevich Fayzullayev XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ- ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИГА ДОИР МАСАЛАЛАРНИ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	170
23. Rashid Mamatkulovich Xolmurodov TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK FANINI O‘RGANISHDA SHAROF RASHIDOV MUZEYI MANBALARIDAN FOYDALANISH.....	177
24. Tuyg‘un Rajabovich Ernazarov TURKISTON GENERAL GUBERNATORLIGIDA BOJXONA XIZMATINING TASHKIL ETILISHI VA UNING FAOLIYATIDAN LAVHALAR (Rossiya imperiyasi va Xitoy aloqalari misolida).....	182
25. Бахтиёр Эргашевич Юлдашев, Светлана Владимировна Темирова ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ МУҚАДДАС КИТОБИ “АВЕСТО”ДА СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ҚАРАШЛАР.....	187
26. Алишер Яркулов АРХЕОЛОГИЯ МЕРОСИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ ТУРЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ХУСУСИДА.....	195
27. Abdurahmonova Nodiraxon Xusnutdinovna HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR.....	202

обеспечение прав и свобод человека, формирование правовой культуры личности и общества. Либерально-демократические идеи и нормативно-культурная реальность, сформированные в развитых государствах, являются моделями общественного развития, шаблонами, по которым изучалась научно-исследовательская работа.

Ключевые слова. Демократическое государство, политическое, экономическое, культурное, независимость.

Abdurakhmanova Nodirakhon Khusnitdinovna

Tashkent Medical Academy

Lecturer of the Department of Social Sciences

LEGAL CULTURE AND DEMOCRACY: SOCIAL PHILOSOPHICAL APPROACHES AND CONCEPTS

ABSTRACT

Free will is voluntary action, voluntary will, and law is official, i.e., universally binding norms established by the state. It is always up to the person to do the first or not, and not to do the second, he must follow these universally binding norms. However, such an approach should not lead to the absolutization of law, because a person is a social being who lives between free will based on the principle of discretion and law based on the principle of obligation. This characteristic of him is embodied in his social relations, living in the bosom of social life. The global events taking place in this region are primarily aimed at establishing democracy, ensuring human rights and freedoms, and forming a legal culture of the individual and society. Liberal-democratic ideas and normative-cultural reality formed in developed countries are models of social development, templates, according to which research work was studied.

Key words: Democratic state, political, economic, cultural, independence.

KIRISH

Dunyodagi demokratik davlatlarda kishilarning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy ongini, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi, chunki ularsiz demokratik rivojlanishni ta'minlash qiyin. Huquqiy madaniyat demokratik taraqqiyot, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolati, shaxs fuqarolik pozitsiyaning ifodasidir. Shunchaki huquqning o'zi emas, uning, integrativ xususiyatiga muvofiq, ijtimoiy munosabatlar bilan uzviyligi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy faollik bilan dialektik uyg'unlikda kelishi qimmatli.

MATERIALLAR VA METODLAR.

Huquqning integrativligi dolzarblashgan va ob'ektivlashgan joydagina demokratik qadriyatlar qaror topishi mumkin. O'zbekiston bugun demokratik yangilanishlarning yangi bosqichiga qadam qo'ygan, u mustaqillik yillarida to'plangan ijobiy tajribalarga tayanib, mamlakatni innovatsion rivojlanishtirishni strategik maqsadi qilib qo'ygan. Keyingi olti yil ichida yangi huquqiy madaniyatni alohida voqelik, fenomen sifatida shakllantirishga qaratilgan keng islohotlar amalga oshirildi, Yangi Konstitutsiya ishlab chiqildi. Bu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Konstitutsiyaviy islohotlarga oid bildirgan to'rtta yo'nalishlarni, ya'ni 1) inson, uning hayoti, erkinligi, qadri, qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlar; 2) O'zbekiston ijtimoiy davlat; 3) erkin va adolatli fuqarolik jamiyati; 4) O'zbekiston insonparvar, demokratik huquqiy davlat, degan tamoyillarni keltirish mumkin. Bundan tashqari, Prezidentimizning "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar i to'g'risida" (2016, 29 dekabr), "O'zbekiston Respublikasida 2020- 2030 yillarda Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi" kabi 600 dan ziyod Qaror va Farmonlari qabul qilindi. Ularda davlat institutlarini inson manfaatlariga, huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qildirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy zaminini yanada kuchaytirish nazarda tutiladi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR.

Demokratik huquqiy davlat, insonparvar, ideal jamiyat barpo etish insoniyatning qadimdan orzusi bo'lib keladi. Insonning huquq va erkinliklari, huquqiy -madaniy voqelik ana shu ideal va orzular orqali tadqiq etib kelingan.

X.B.Boboevning fikriga ko'ra, huquqiy madaniyat huquq bilan madaniyat o'rtasidagi aloqalarda emas, balki o'zining va boshqalarning erkini anglab, ular bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishgan zahoti namoyon bo'ladi. Demak, erk va ijtimoiy munosabatlar huquqiy madaniyat namoyon bo'lishining negizlaridir. Savol uyg'onishi mumkin, nima uchun huquq va madaniyat fenomenlari emas, balki erk va ijtimoiy munosabatlar huquqiy madaniyatning negizlariga aylandi? Haqiqatan ham, huquqiy madaniyat negizlarini huquq va madaniyat fenomenlaridan izlash to'g'ri emasmi? Nima uchun tibbiyotshunoslar tibbiy madaniyatni tibbiyot va madaniyat uyg'unligidan, siyosiyotshunoslar siyosiy madaniyat negizini siyosat va madaniyat uyg'unligidan izlashadiyu, huquqshunoslar huquqiy madaniyat negizini erk va ijtimoiy munosabatlardan izlashadi? Ijtimoiy taraqqiyot tarixi ko'rsatadiki, huquq va erk uzviy bog'langan voqeliklardir. Erk uchun kurash huquq uchun, huquq uchun kurash erk uchun kurash bo'lib kelgan. Ularni bir-biriga aynan, sinonim deb qarash ham uchraydi. Biroq erk huquqdan kengroq, u mudom huquqni o'z ichiga oladi. Masalan, huquq amal qilmaydigan joy(er-xotin aloqalari, shaxsiy hayotni yo'lga qo'yish kabilar)da erk qatnashadi, inson ixtiyoriy xatti- harakatlarining ekzistentsial ifodasi sifatida keladi. Shuning uchun erk ixtiyoriy xatti- harakat, ixtiyoriy iroda, huquq esa rasmiy, ya'ni davlat tomonidan o'rnatilgan umummajburiy normalar hisoblanadi. Birinchisini bajarish yoki bajarmaslik mudom inson ixtiyorida, ikkinchisini bajarish yoki bajarmaslik inson ixtiyorida emas, u bu umummajburiy normalarga amal qilishi shart. Lekin bunday yondashuv huquqni mutalaqlashtirishga olib kelmasligi zarur, chunki inson ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanadigan erk bilan majburiylik tamoyiliga tayanadigan huquq o'rtasida yashaydigan ijtimoiy mavjudot. Uning ushbu xislati ijtimoiy munosabatlarida, ijtimoiy hayot qo'ynida yashashda mujassamdir. Huquqiy madaniyat va demokratiya uyg'unligi mavzusini tadqiq etganda, bizning fikrimizcha, huquq fenomeniga urg'u berish matiqan to'g'ri bo'ladi.

Demokratiyaga oid falsafiy yondashuvlar va kontseptsiyalardagi huquqning o'rni, inson erki, ozodlik, mehnat huquqi, yashash huquqi, saylash va saylanish, davlat ishlarini olib borishda ishtiroki huquqi, hurfiylik, ijod erkinligi kabilar e'tibor qaratiladi. Aynan ular huquq falsafasining predmeti hisoblanadi va bizni ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar tomonga og'ib ketishdan asraydi. Bizga demokratik yondashuvlar va kontseptsiyalardagi ijtimoiy-siyosiy voqeliklar emas, ulardagi inson huquqi va erkinliklariga oid qarashlar zarur. Yangi O'zbekiston qishloqlari agrotuzilmalaridagi islohotlar aholidan huquqiy-madaniy faollikni talab etayotgan bo'lsa-da, qishloqda sotsionormalarning ustuvor ekani huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy ko'nikmalarning namoyon bo'lishiga xalaqit berayotgani kuzatiladi. Davlatimiz va hukumatimiz tomonidan agrosotsial munosabatlarni innovatsion o'zgartirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yangi normalar va xalqaro standartlarni joriy etish amalga oshirilmoqda, bugun o'zbek qishloqlari hayotida urbanizatsiya jarayonlari ketmoqda, ular sivilizatsiyaviy rivojlanishga o'tmoqda. Lekin qishloq aholisining huquqiy madaniyatida transformatsiya jarayonlari juda sekin kechmoqda. Goho bu jarayonlarda teotransformatsiya yetakchilik qiladi. Jamiyatimizda dinga, islomiy tartiblar va shariat qonunlariga bo'lgan qiziqishning oshib borayotgani tufayli qishloq aholisi ongi ham ushbu o'zgarishlar ta'sirida qolmoqda. To'g'ri, teotransformatsiya ijtimoiy hayotimizda ustuvor o'rinni egallayotgan yo'q, biroq kishilar ongidan ular tobora chuqurroq joy olayotganini ham inkor qilib bo'lmaydi. Aslida teotransformatsiya qishloq hayotida sotsionormalarning ustuvorligiga hamohangdir. Qishloq aholisi ichida huquqiy normalarga ko'proq e'tibor beradigan, ular imkoniyatlaridan foydalanishga intiladigan shaxslar, guruhlar ham mavjud. Ularga fermerlar, tadbirkorlar, ziyolilar kiradi. Respondentlarning javoblari va aholi o'rtasida olib borilgan intervyular ko'rsatadiki, hech kim huquqiy normalarga, qonunlarga qarshi emas, ammo ularning ishlashini ta'minlashda va ulardan foydalanishda muammolar mavjud. Masalan, o'z huquq va erkinliklarini talab etadigan fermer yoki tadbirkorlarning aksariyati bank kredit tizimi faoliyatidagi tanish-bilishlikdan norozi, ichki ishlar organlaridagi sansalorlik, bedillik, hatto inson arzlari va tashvishlariga befarqlik ularning asabiga tegadi. Ular ichida ushbu illatlarni va to'siqlarni yengishga intiluvchi sub'ektlar ham bor, ammo

ularida huquqiy savodxonlik va yuridik ko'nikma yetishmaydi. Ularning ijtimoiy-huquqiy faolligi sotsionormalar ta'sirida qolib ketadi. Ba'zan esa teotransformatsiya xalaqit beradi.

Qishloq aholisining huquqiy-madaniy faolligini oshirish uchun ularning pog'onalari (1-pog'ona, 2-pog'ona, 3-pog'ona), modellari (indifferent model, noloyal model, liberal model) va huquqiy- tarbiyaviy, huquqiy targ'ibot ishlarining innovatsion mexanizmlari aniqlandi. Pog'onalar, modellar va mexanizmlar dialektik uyg'unlikda, qishloq aholisining etnodifferentsial va etnosotsial belgilariga muvofiq, huquqiy ongga ta'sir etadi. Yangi O'zbekiston innovatsion rivojlanish yo'lidan bormoqda, bu jarayon ustqurmaning barcha yo'nalishlariga ta'sir etishi aniq. Shunday ekan, avvalo innovatsion rivojlanish uzluksiz, mudom transformatsiyaga uchrab boradigan, fluktatsion kechishga moyil jarayon ekanini unutmasligimiz kerak. Bu esa huquqiy madaniyatni yuksaltirishni ham uzluksiz jarayon sifatida anglashga undaydi.

XULOSA.

Xulosa urnida shularni aytish mumkinki, "huquqiy madaniyat" tushunchasining ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va definitiv talqinlari "huquq" va "madaniyat" kategoriyalari, voqeliklari sintezining ifodasidir. Unda huquq fenomeni ustuvordir. Ammo, huquqning mohiyatan ijtimoiy madaniy voqelik ekanidan kelib chiqsak, huquq pirovard natijada madaniy taraqqiyotga xizmat qilishini anglaymiz. Demak, madaniyat va ijtimoiy madaniy taraqqiyotga xizmat qilish huquqiy madaniyatning pirovard natijasidir. Ushbu kontseptual fikr huquq fenomenini, shu jumladan, huquqiy madaniyatni ham, ijtimoiy madaniy taraqqiyot maqsadi orqali idrok etishga, o'rganish va baholashga undaydi. Ijtimoiy madaniy taraqqiyotga yo'naltirilmagan huquq aksilmadaniy, aksilinsoniydir. Huquq fenomenining ijtimoiy madaniy taraqqiyotga ta'siri demokratiya, demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari, boshqaruv tizimlarini xalqchillashtirish, hurfiylik, yashash va mehnat huquqi kabi yuridik voqeliklar bilan bog'liqligi orqali ro'y beradi. Ushbu voqeliklarni o'rganmay, ularning ijtimoiy munosabatlarga, kishilar ongi, turmush tarzi, oilaviy hayoti, fuqarolik pozitsiyasi, e'tiqodi, burchi va vazifalariga ta'sirini kuzatmay huquqiy madaniyatni yetarli darajada yoritib bo'lmaydi. Huquqiy madaniyat demokratiyani taqozo etganidek, demokratiya ham huquqiy madaniyat orqali ob'ektivlashadi, real ijtimoiy munosabatlarga aylanadi. Huquqiy madaniyatsiz demokratiya, demokratiyasiz huquqiy madaniyat yo'q.

BIBLIOGRAFIYA:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Конституциявий комиссия аъзолари билан учрашувдаги нутқи // "Янги Ўзбекистон", 2022, 21 июнь).
2. Платон. Государство. - Москва : АСТ, 2022. 448 с.; Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 3. - Москва : Мысль, 1981. 612 с.; Цицерон. Диалоги. О государстве. О законах. - Москва : "Наука", 1966.. 228 с.;
3. История китайской философии. - Москва : Прогресс, 1988. 508 с.;
4. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шахри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашр., 1993. 286 б.;
5. Ибн Сино. Избранные философские произведения. - Москва: Гл. ред. Восточной литературы, 1993. 603 с.; Ғаззолий, Имом Ҳомид. Ихёу улумид дин. МУНИР нашриёти, 2021; 216 б.;
6. Мусулмон эрнинг аёли ва оиласи олдидаги вазифалари. Нашрга тайёрловчилар А.Аҳмад, И.Нуриллоҳ. - Тошкент: Мовароуннахр, 2020. 382 б.
7. Мусулмон аёлнинг эри ва оиласи олдидаги вазифалари. Нашрга тайёрловчилар А.Аҳмад, И.Нуриллоҳ. - Тошкент: Мунир, 2021. 432 б.; Локк Дж. Два трактата о правлении. Сочинения в 3 томах. Том 3. - Москва : Мысль, 1998. 578с.
8. Кант И. Сочинения в шести томах. Том 4. Часть 1,2. - Москва : Мысль, 1974. 534 с.
9. Гегель. Философия права. - Москва : Мысль, 1979. 602 с.; Дюркгейм Э. Избранные произведения. - Москва : "Наука", 1993. 508 с.; Вебер М. Избранные произведения. - Москва : Наука, 1986. 636 с.

10. Даль Р. Введение в экономическую демократию. - Москва : “Наука” СП ИКВА , 1991. 148 с.; Хайек Ф.А. Общество свободных.- Лондон, ОРИХЛ, 1990. 308 с.; 2004. 244 с.
11. Фромм Э. Здоровое общество. - Москва : Изд. АСТ, 2019. 526 с.
12. Тоффлер Э. Метаморфози власти. - Москва : Изд. АСТ, 2004. 669

ҚУТЛОВ: УСТОЗЛАР ИБРАТИ ҶУҒЛИККА ҶНДАЙДИ...

*Токи боқий экан озод, ҳур Ватан,
Ижодкорлик бизнинг таърифимиздир
Сизни чорлаб турган бу қутлуғ маскан,
Бухоройи шариф -шарафимиздир.*

Инсон ҳаётини оқар сувга қиёслашади. Аммо ана шу қисқа умрни хайрли ишлар, илму маърифат ёғдулари билан безаш ҳаммага ҳам насиб этавермайди. Қутлуғ 85 ёшини қаршилаган Бухоро давлат университети профессори, олим, талабчан ва меҳрибон устоз, бағрикенг инсон Сулаймон Иноятонинг умр йўли эзгу аммаллар, илму маърифат эгаллаш ва ўрганишдек хайрли ният ила йўғрилганлиги билан ибратлидир.

Жамоатчи олим, фан ютуқларининг толмас ташвиқотчиси, тарих фанлари доктори, профессор Сулаймон Иноятон 1938 йил 12 мартда Бухоро шаҳрининг Ситораи Моҳи хоса мавзесидаги Шейхон қишлоғида таваллуд топди.

1946-1956 йилларда Бухоро шаҳридаги 10-сонли ўрта мактабни битириб, 1956-1961 йилларда Бухоро давлат педагогика институти (бугунги Бухоро давлат университети)нинг тарих—филология факультетини имтиёзли диплом билан тамомлаган. Шу илм даргоҳида педагогик фаолият юритиш билан биргаликда, 1964-1966 йиллар давомида институт ёшлар қўмитасини бошқариш ёш Сулаймон Иноятонинг фандаги ҳаёт йўли ва илмий йўналишларини белгилаб берди.

1966-1969 йилларда А.Навоий номидаги Самарқанд давлат университетининг аспирантурасида таҳсил олиб, 1969 йилнинг 7 октябрида Тошкент давлат университетида тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун “Ўзбекистон матбуотининг қишлоқ хўжалигини коллективлаштиришдаги роли” мавзусидаги диссертацияни ҳимоя қилгач, 1966-1980 йиллар давомида Бухоро давлат педагогика институтида дарс бериш билан бир қаторда рус филологияси факультетида декан лавозимида ишлаб келди.

Сулаймон Иноятон 1982 - 1984 йилларда катта илмий ходим лавозимига ўтказилди.

1987 йил 7 декабрда Москва давлат педагогика университетида тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун “Меҳнаткашларни интернационализм руҳида тарбиялашда матбуотнинг ўрни (Ўрта Осиё Республикалари мисолида. 1961-1985йй.)” мавзусидаги диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди.

1984-1989 йилларда Бухоро давлат педагогика институтида кафедра мудири, 1989-1992 йилларда илмий ишлар бўйича проректор, 1992 -1995 йиллар давомида университетнинг тарих факультети декани лавозимларида ишлаб келди.

Сулаймон Иноятон муаллифлиги ва ҳаммуаллифлигида Республика олий ва ўрта махсус таълим даргоҳларининг талабалари учун тарих фани бўйича дарслик, ўқув қўлланмалар яратилди. Олимнинг 50тага яқин монография, рисоалари ҳамда ўқув қўлланмалари, 500 дан ортиқ илмий мақолалари chop этилган. Унинг илмий тадқиқотлари олимлар ва кенг китобхонлар оммасига маълум. Устознинг илмий қарашлари кенг қамровли бўлиб, миллий истиқлол ғояси, миллатлараро муносабатлар, Ўзбекистон тарихи ва оммавий ахборот воситаларининг ўрни, Бухоро ва Навоий вилоятларининг, айниқса, Бухоро ва қадимий Кармананинг тарихий обидаю қадамжоларига ва шайху уламоларининг фаолиятини ҳар томонлама ёритишга қаратилган. Шунингдек, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Мирзо Бобур, Алишер Навоий, Файзулло Хўжаев каби салтанат ва давлат арбоблари, Абу Али Ибн Сино, Шайх Худойдоди Вали, Қосим Шайх Азизон, Баҳоуддин Нақшбандийнинг устозлари Мавлоно Ориф Деггароний ва шогирдлари Хўжа Хусрав каби улўғ алломаларга бағишланган.

Устоз Сулаймон Иноятон “Меҳнаткашларни байналминал руҳда тарбиялашда матбуотнинг роли” (Тошкент, 1996), “Бухарский Дом Просвещения в Москве” (Бухара,

1990), "История Бухары в литературе" (Бухара, 1996), "Амир Темури - полководец государственный деятель" (Навои, 1995), "Файзулла Хўжаев (Навои, 1996) "Қосим Шайх Азизон" (Тошкент, 2000), "Амир Темури Работи Маликда" (Тошкент, 1998), "Кўхна тарих гувоҳи" (Тошкент 2001), "Соқибқирон ва темурийлар назари тушган диёр" (Тошкент, 2002), "Амир Абдуллахон даврида Кармана" (Тошкент 2004), "Кармана тарих кўзгусида" (Тошкент, 2006), "Худойдоди Вали - Кармана фарзанди" (Тошкент, 2008)", Навоий шахрининг 50 йиллигига бағишланган "Навоий - Қизилкум бағридаги мўъжиза шаҳар" (Тошкент, 2008), Навоий вилоятининг тарихи ва истиқболларига бағишланган "Навоий - ўтмиши қадим, келажаги нурли диёр" (Тошкент, 2011), "Ибн Сино таълим - тарбия тўғрисида" (2013), Алишер Навоий матбуот саҳифаларида (2014), "Бухоро тарихи" (Тошкент, 2016) каби кўплаб тарихий асарларнинг муаллифидир. Бу китоблар олимнинг Бухоро, Навоий вилоятлари ва Республика тарихини яратиб кўшган муҳим ҳиссаси бўлиб ҳисобланади. Сулаймон Иноятлов ижодида шунчаки, йўл - йўлакай ёзилган ишлар йўқ. Қай мавзуда, нима ҳақида ёзмасин, барини тўлиб-тошиб, жўшиб ёзган, эҳтирос билан ёзган, масаланинг моҳиятини ҳар томонлама очишга эришган. Олим ўз фаолиятини жамоат ишлари билан биргаликда олиб борди. Бухоро давлат университетининг илмий ишлар бўйича проректори вазифасида ишлар экан, университетнинг илмий салоҳиятини кўтариш учун қатор ишларни амалга оширди. Унинг раҳбарлигида педагогика ва ўзбек адабиёти бўйича аспирантура квотасини қўлга киритиб, уни Бухоро давлат университети ҳузурида очишга эришилди. Бугун университетда фаолият кўрсатаётган ёшларнинг кўпчилиги ана шу давр маҳсулдирлар. Бухоро давлат университети тарих факультети декани сифатида Баҳоуддин Нақшбандийнинг 675 йиллик юбилейларини ўтказишда, у кишининг номидаги илмий марказ ва музейни ташкил этишда факультет жамоаси билан маълум ишларни амалга оширди. Баҳоуддин Нақшбандий номидаги илмий марказга раҳбарлик қилди.

Сулаймон Иноятлов қаерда бўлмасин, ўзининг Бухоролик эканлиги билан фахрланиб юради. Бухоронинг тарихи, адабиёти ва санъати маданияти, адабий муҳити, бугуни ва эртасига дахлдор масалалар олимнинг жону-жаҳонидир. Бу туйғу унинг барча илмий ижодида у ёки бу даражада ўз изини кўрсатган. Шу маънода айтиш мумкинки, олимнинг ҳар бир асари ўзликни англашга, Бухоро қалбини тушунишга даъват этади. "Бухорои шариф хўжалари - Усмон Хўжа, Файзулло Хўжаев аجدодлари ва авлодлари шажараси" (Бухоро, 2022), "Умрбоқий инсон: устозга шогирд эҳтироми" (профессор Жума Намозовнинг 100 йиллигига бағишланган), "Қатағон қилинган уч буюк сиймо: тарих ва тақдир" (Улуғларнинг ҳаёти ва фаолиятига доир маълумотлар Бухоро, 2023) каби монографияларни яратган сермахсул олимлардан биридир. У Тошкент Шарқшунослик институти, Самарқанд давлат университетида тарих бўйича илмий даражалар берувчи кенгашларда фаолият кўрсатди. Бугун Бухоро давлат университети ҳузуридаги илмий даражалар берувчи PhD 03.27.02. 2020.таг. Рақамли илмий кенгашнинг раиси сифатида фаолият юритиб келмоқда. Унинг илмий раҳбарлигида 5 нафар тарих фанлари номзоди ҳимоя қилди ва бугунги кунда 3 нафар шогирди тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун диссертацияларини ҳимоя қилиш арафасидалар.

Сулаймон Иноятлов Москва, Истанбул, Анқара, Зонгулдак (Туркия), Санкт - Петербург, Тошкент, Таллин, Киев, Симферополь, Туркистон, Тароз, Пермь, Челябинск, Самарқанд, Хўжанд, Андижон, Термиз, Бухоро, Навоий шаҳарларида ўтказилган ўнлаб халқаро ва минтақавий ҳамда республика миқёсидаги илмий, назарий, амалий анжуманларнинг иштирокчисидир.

Профессор С.И.Иноятлов кўп қиррали фаолияти учун "Шавкатли меҳнати учун" (1970) медали, "Ўзбекистон халқ маорифи аълоҳиси" (1974), Ўзбекистон халқ таълими "Фахрий ёрлиғи" (1981), "Олий таълим аълоҳиси" (2001), "Устоз" фахрий унвони (2001), "Мустақилликнинг 10 йиллиги" эсдалик нишони (2001), "Дўстлик" ордени (2002), "Мустақилликнинг 25 йиллиги" эсдалик нишони (2016), "Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 30 йиллиги" эсдалик нишони (2021), "Меҳнат фахрийси" 1 даражали

кўкрак нишони (2022), “Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 30 йиллиги” эсдалик нишони (2022) билан тақдирланган.

Бухорода илму фанга ҳаётини бахшида этган фидойи инсонлар орасида ўз илмий-ижодий изланишларига ғоят талабчанлик билан муносабатда бўладиган олим ва муаллим Сулаймон Иноятов ҳаёти ва фаолиятида ўсиб келаётган навқирон авлодга ибрат бўладиган бу каби жиҳатлар талайгина. Муборак ёшга қадам қўйган муҳтарам устозим, тарих-билимдони, захматкаш олимни ушбу қутлуғ айём билан чин дилдан қутлаб, у кишига Яратгандан соғлиқ-саломатлик, туганмас ижодий илҳом, шогирдлар ва фарзандлар камолини кўриш саодатини тилаб қоламан.

Устозим сизга тангри таборақ бўлсин, қутлуғ 85 ёшингиз муборак бўлсин.

**Ҳурмат ва эҳтиром ила шогирдингиз
Бозоргул Ўринова**

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000